

Uzbekistan Airways “Haj-2023” dasturi bo‘yicha O‘zbekiston musulmonlari idorasining rasmiy hamkori

2023 6 iyun

2023-yilning 4-iyun kuni Uzbekistan Airways “Haj-2023” dasturi doirasida Toshkent-Madina yo‘nalishi bo‘yicha ilk parvozni amalga oshirdi.

Aviakompaniya joriy yilning 4-19 iyun kunlari O‘zbekistonning 10 ta shahridan Madinaga 62 ta reysni amalga oshiradi va 15 130 yo‘lovchini ziyorat maqsadida o‘z manzillariga yetkazib qo‘yadi. Ziyoratchilarni qaytarib olib kelish bosqichida esa Jiddadan Toshkent va O‘zbekistonning boshqa shaharlari parvozlar 2023-yilning 4-22 iyul kunlari bajariladi.

Uzbekistan Airways “Haj-2023” dasturi bo‘yicha barcha parvozlarni Boeing 767 havo kemalarida amalga oshiradi.